PARAFRAZALARNING ASOSIY XUSUSIYATLARI

Kurbanova Madina Anvar qizi
Guliston davlat pedagogika instituti
Qozoq tili va adabiyoti yo‘nalishi
3-bosqich talabasi
e-mail: qmadina034@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqola parafrazalar, ularning xususiyatlarti, o‘zbek tilida tutgan o‘rni, o‘zbek tilining taraqqiy etishidagi ishtiroki hamda parafrazalarning lingvokultrologik xususiyatlarini, olimlarning tadqiqot natijalari va izlanishlar tahlillarini yoritib beradi.

Kalit so‘zlar. Parafraza, omonim parafraza, obrazli, uslubshunoslik, stilistik vosita, lingvokultrologiya, metafora, metonomiya, sinekdoxa.

Annotation. This article highlights paraphrases, their characteristics, their role in the Uzbek language, their contribution to the development of the Uzbek language, as well as the linguoculturological features of paraphrases. It also discusses the findings and analyses of scholars’ research and investigations on the topic.

Keywords: paraphrase, homonymous paraphrase, figurative, stylistics, stylistic device, linguoculturology, metaphor, metonymy, synecdoche.

Til kommunikativ aloqa vositasi sifatida insonlar orasida muloqot jarayonida ishtirok etadi. Shuning bilan birgalikda, madaniyat ko‘zgusi hisoblanadi. Unda nafaqat insonni o‘rab turgan borliq, undagi xalqning ijtimoiy hayotini, uning mentalitetini, milliy xarakterini, madaniy an’analarini, urf-odat qadriyatlarini aks ettiradi. Til madaniyat xazinasi hisoblanib, leksika, grammatika, iboralar, maqollar, badiiy va ilmiy adabiyotlar orqali boyiydi.

Parafrazalarlar biror narsa hodisaga o‘xshatish orqali tasvirlab ifodalaydi, hamda narsa va hodisaning ikkinchi nomi hisoblanadi. Parafrazalar so‘zning ma’nosini oydinlashtirish, matnni badiiylashtirish, takrorni oldini olish kabi uslubiy vazifalarni bajaradi. O‘zbek tilshunosligida tasviriy ifodalarning ma’no-mazmunini ifodalab berish, uning mohiyatini ochib berishi va qaysi uslubda qo‘llanishi uslubshunoslikning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Parafraza atamasining xorijiy lug‘atlarda turlicha talqini uning farqli va o‘xshash tomonlari xususida bahs yuritilgan. Parafraza aslida ‘‘grekcha” so‘z bo‘lib (paraphrasis),

lingvistikada jumladan, o‘zbek tilshunosligida “tasviriy ifoda “ ma’nosida qo‘llanadi. Bu hodisalar hozirgi kunda ham olimlar nazarida chetda qolgan emas. O‘rganilgan manbalarga xronologik nazar solamiz. Leksikograf olim O.S. Axmanova tahriri ostida nashr qilingan lingvistik qomusiy lug‘atda parafrazaga “biror so‘zni ba‘zi predmetlarning so‘zlar orqali oddiy ifodalanishini tasviriy ifoda bilan almashtirishdan iborat bo‘lgan ko‘chim” deb izoh bergan.[1, 312-b] O‘zbek tilshunosligida ko‘chim turi sifatida parafrazani o‘quv qo‘llanmalariga olib kirgan tilshunos olim R.Qo‘ng‘urov 1893-yilda nashr etilgan “O‘zbek tili stilistikasi” qo‘llanmasida: “…kishilarning otlarini yoki boshqa predmetlarning nomini to‘g‘ridan to‘g‘ri gapirmasdan, ularni turli xil so‘z yoki tasviriy ifodalar vositasida bayon qilish perifraz deyiladi” deb ta’rif bergan [4, 148-b]. Tasviriy ifodalarning parafraza yoki perifraza, parafraz, perifraz deb yuritiladigan nomlari bir xil ma’noni anglatadi. Bu borada tadqiqot olib borgan tilshunos olimlardan. M.Mirtojiyevning tadqiqotlarida batafsilroq o‘rganilgan.Olimlarning ta’kidlashicha “parafrazalar ma’lum bo‘lak yoki ko‘chma ma‘noda bo‘lib, ular ma‘nosi sintezidan tashkil topgan, bir tushunchani bildiruvchi lug‘aviy birliklardir…

Parafrazalar haqida shu kungacha ko‘plab maqolalar va desertatsiyalar ishlangan. Bundan avval parafrazalar maxsus ilmiy tadqiqot obyekti sifatida rejada o‘rganilmagan. Shuningdek, parafrazalar badiiy tasvir vositalaridan biri sifatida og‘zaki nutqimizda ham yozma nutqimizda ham keng qo‘llanadi. Parafrazalar tilimizning naqadar boyligi hamda ta’sirchan ekanligini ham ko‘rsatadi. Ularning shaxs-narsa, buyum, voqea-hodisalarni tasvirlash yo‘li bilan so‘z birikmalari holida ifodalaydigan birikmalarga yoki so‘zga tasviriy ifodalar yoki parafrazalar deb yuritiladi.

Parafraza holida maqom olgan birikmada, garchi semantik qayta bo‘linish kuzatilmaydi”[2,67-b]. Parafrazalar omonim, sinonim hamda metafora, metonimiya va sinekdoxa kabi ma’noviy shakllari mavjuddir. Omonim parafrazalar nutqimizda bir parafraza o‘rnida qo‘llanilsa, unda bular shakldosh parafrazalar. Masalan, Aql gimnastikasi- shahmat, matematika Qora oltin- neft va ko‘mir Bahor elchisi- qaldirg‘och va deyiladi boychechak kabilar Sinonim parafrazalar esa bir so‘zning bir necha tasviriy ifodalari bo‘lsa ular ma‘nodosh hisoblanadi. Masalan, Televizor-zangori ekran, oynayi jahon Bahor-fasllar kelinchagi, uyg‘onish fasli kabi. Metafora asosida ma’no ko‘chishida parafrazalar – muayyan hodisa va belgilarning nomini boshqasiga o‘zaro tashqi o‘xshashlik asosida ko‘chirish jarayonidir. Metafora asosida o‘xshashlik asosan uning rangi va xususiyatining o‘xshashligi yetakchilik qiladi. Misol qilib olsak, qara oltin-neft, oq oltin-paxta, zangori olov-gaz, yashil boylik-ormon kabi. Metonimiya asosida o‘xshashlikda bunda biror narsa hodisaning nomi bir narsaga o‘xshashlik asosida emas, balki o‘zaro bog‘liqlik asosida ko‘chishidir. Qiyoslaymiz, Alisher Navoiy-g‘azal mulkining sultoni, Abdulla Qodiriy-o‘zbek romanchiliging asoschisi yoki paxtakorlar- oq oltin ijodkorlari. Demak, metonimiyadagi predmetlararo bog‘liqlik parafrazalarga ham xosdir. Biroq parafrazalardagi o‘xshashlik o‘zaro bog‘liqlik tasviriy - obrazli holatda bo‘ladi. Obrazli parafrazalarga biror predmetni unga taalluqli bo‘lgan o‘xshashlik bilan tasvirlashdir. Bunga misol qilib “oq oltin”, “zangori ekran”, “kumush tola”, “oq chashma”, “zangori olov” kabi.

Sinekdoxa usulida parafrazalarning o‘xshashligi, bunda butun orqali qism tasvirlanadi. Professor olim SH.Rahmatullayev sinekdoxani “bir predmetning nomi boshqa bir predmetga qism bilan butun munosabatining aks etishi” dir deb ta’riflaydi. Misol qilib oladigan bo‘lsak, peshonasi sho‘r, zangori ekran, kumush tola kabi.

Parafrazalar haqida qarashlar qadim zamonlardan mavjud bo‘lgan shuningdek, bu haqida qadimgi til va uslubiyat nazariyotchilaridan Aristotel va Kvintilian tomonidan qayd

etilganligi, mahalliy va sharqiy slavyan tilshunosligining ham diqqat markazida turganligi manbalarda qayd etilgan [5].

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbek tili parafrazalari-10.02.02. 7-8 b.
2. Tursunov.U Muxtorov.J, Raxmatullayev.Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili- Toshkent, 1992. 81- bet.
3. F.Bobojonov, K.Rajapova. O‘zbek tili. Toshkent 2017. 57-b.
4. I.Xolmurodov, S.Musayeva. Diktantlar to‘plami, Nukus, 2016. 56-66 b.
5. R.Rasulov, I.Umirov. O‘zbek tili tasviriy ifodalarning izohli lug‘ati. Toshkent, 1997. 6-7-b
6. M.Hamroyev. Ona tili. Toshkent,2012. 43-b
7. N.Erkaboyeva. Ona tili qo‘llanma.
8. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. Birinchi jild Toshkent 200-2005.